


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, III-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING INSTITUTSIONAL TO'SIQLARI VA IQTISODIY OQIBATLARI	10
I. R. Berdikulova	
KIMYO SANOATINING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA TARMOQ KORXONALARIDA BOSHQARUV HISOBHI	14
Onorboev Sh.M.	
A WEEKLY LOGISTICS-CONTROLLING SYSTEM FOR EXPORT SUPPLY CHAINS: CORRIDOR-LEVEL EVIDENCE FROM A TEXTILE EXPORTER.....	26
Mukhammadiyahaminova Shakhzoda Sherzodovna	
FOTOVOLTAIK-TROMBE DEVORI ASOSIDA HAVONI ISITISH, TOZALASH VA ELEKTR ENERGIYASI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI INTEGRATSIYALASHNING ILMIY-METODIK TAHLILI.....	36
Rahimova Volida Karim qizi	
XAVFSIZ HAYOT TARZINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY MODEL.....	42
Nigmatjonov Sardor Abdumannobovich	
РАЗВИТИЕ МЕТОДОЛОГИИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ СТРАТЕГИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ ПОДХОД.....	49
Дониёрова Зухрабону Алишер кизи	
KAMBAG'AL OILALARNI TADBIRKORLIKKA JALB QILISHDA DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH VA BOSHQARISH (MENEJMENT) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI...53	
Bazarbaeva Asiya Shalkarbaevna	
MOLIYAVIY INKLYUZIVLIK KONSEPSIYASI: BANK XIZMATLARINING KAMBAG'ALLIK DARAJASIGA TA'SIRINING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	58
Niyozov Zuxur, Abdusalilov Shexroz, Zubaydulloyeva Damira	
KORXONALARNI QAYTA TASHKIL ETISH JARAYONIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBHI VA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	61
Davletov Ikrom Raximberganovich	



KORXONALARNI QAYTA TASHKIL ETISH JARAYONIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Davletov Ikrom Raximberganovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Buxgalteriya hisobi kafedrası dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

Orcid: 0000-0002-8311-7890

Annotatsiya. Maqolada korxonalarni qayta tashkil etish jarayonida asosiy vositalar hisobi, ularni baholash va moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish hamda tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan. Natijada asosiy vositalarni inventarizatsiya qilish, baholash va huquqiy vorislar o'rtasida taqsimlashning takomillashtirilgan sakkiz bosqichli algoritmi taklif etilgan. Taklif etilgan algoritmi qayta tashkil etish jarayonida hisob axborotining ishonchliligi va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining taqqoslanuvchanligini oshirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: qayta tashkil etish, asosiy vositalar, biznes birlashuvlari, IFRS 3, IAS 16, qayta baholash, taqsimlash balansi, adolatli qiymat.

Аннотация. В статье исследованы вопросы бухгалтерского учета основных средств, их оценки и отражения в финансовой отчетности в процессе реорганизации предприятий. В исследовании использованы методы сравнительного анализа, изучения нормативно-правовых документов и системного анализа. В результате предложен усовершенствованный восьмиэтапный алгоритм инвентаризации, оценки и распределения основных средств между правопреемниками. Предложенный алгоритм позволяет повысить достоверность учетной информации и сопоставимость показателей финансовой отчетности в процессе реорганизации.

Ключевые слова: реорганизация, основные средства, объединение бизнеса, IFRS 3, IAS 16, переоценка, разделительный баланс, справедливая стоимость.

Abstract. This article examines the accounting, valuation, and financial reporting of property, plant, and equipment during corporate reorganization processes. The study employs comparative analysis, review of regulatory documents, and systems analysis methods. As a result, an improved eight-stage algorithm for the inventory, valuation, and allocation of fixed assets among legal successors is proposed. The proposed algorithm enhances the reliability of accounting information and improves the comparability of financial reporting indicators during reorganization procedures.

Keywords: reorganization, property, plant and equipment, business combinations, IFRS 3, IAS 16, revaluation, allocation balance sheet, fair value.

KIRISH

So'nggi yillarda iqtisodiyotning globallashuvi, korporativ sektorda raqobatning kuchayishi va investitsiya jarayonlarining faollashuvi natijasida korxonalarni qayta tashkil etish amaliyoti keng tarqalmoqda. Qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish shaklidagi qayta tashkil etish jarayonlari korxonalar faoliyatini optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish hamda bozorda raqobat ustunligini ta'minlashning muhim vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday jarayonlarda aktivlar va majburiyatlarni huquqiy vorislar o'rtasida taqsimlash, ularni baholash va buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda korporativ islohotlarni jadallashtirish va MHXSni joriy etish jarayonlari mazkur masalaning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Jahon amaliyotida biznes birlashuvlari va qayta tashkil etish operatsiyalarining ko'payishi mazkur jarayonlarni hisobga olish va baholash usullarini takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda.

Ayniqsa, sanoat korxonalarida asosiy vositalar aktivlarning eng yirik qismini tashkil qilishi sababli, ularni baholash va hisobga olish masalalari qayta tashkil etish jarayonining markaziy elementi hisoblanadi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarida mazkur masalalar IFRS 3 "Business Combinations" hamda IAS 16 "Property, Plant and Equipment" standartlari orqali tartibga solinadi. IFRS 3 talablariga muvofiq, biznes birlashuvlarida sotib olingan aktivlar sotib olish sanasida adolatli qiymat bo'yicha tan olinadi, IAS 16 esa

asosiy vositalarning dastlabki va keyingi baholash tartibini belgilaydi. Biroq qayta tashkil etish jarayonlarida asosiy vositalarni taqsimlash balansida aks ettirish, qayta baholash natijalarini hisobga olish va texnologik jihatdan o'zaro bog'liq obyektlarni huquqiy vorislar o'rtasida taqsimlash bo'yicha metodologik masalalar hanuz dolzarbligicha qolmoqda. Shu bilan birga, mazkur standartlarda huquqiy vorislar o'rtasida aktivlarni taqsimlashning amaliy mexanizmi to'liq ochib berilmagan bo'lib, bu milliy amaliyot uchun qo'shimcha uslubiy yechimlar ishlab chiqishni talab qiladi.

Tadqiqotning maqsadi qayta tashkil etish jarayonida asosiy vositalar hisobiga oid nazariy va amaliy muammolarni tahlil qilish hamda ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun baholash, qayta baholash va taqsimlash balansini shakllantirish masalalari tadqiq etildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda qayta tashkil etish jarayonida asosiy vositalar hisobi asosan baholash, qayta baholash, huquqiy vorislarga o'tkazish va moliyaviy hisobotda aks ettirish nuqtai nazaridan tadqiq qilingan.

IFRS 3 va IAS 16 standartlari biznes birlashuvlari hamda asosiy vositalarni baholashning metodologik asosini shakllantirib, aktivlarni adolatli qiymatda tan olish va keyingi baholash tartibini belgilaydi.

Epstein va Jermakowicz hamda PwC tadqiqotlarida biznes birlashuvlarida asosiy vositalarning adolatli qiymatini aniqlash moliyaviy axborot sifatini oshirishi, bunda bozor, xarajat va daromad yondashuvlaridan kompleks foydalanish maqsadga muvofiqligi asoslangan. Mazkur yondashuv qayta tashkil etish jarayonida aktivlarning haqqoniy qiymatini aniqlash uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Kruglyak, Kulbina va Romanov ishlarida qayta baholash modeli aktivlarning haqiqiy iqtisodiy qiymatini aks ettirish va moliyaviy hisobotning ishonchligini ta'minlash vositasi sifatida baholangan. Ularning fikricha, qayta baholash natijalari moliyaviy hisobotda aktivlarning haqiqiy iqtisodiy qiymatini aks ettirishi lozim.

Qayta tashkil etish jarayonida asosiy vositalarni huquqiy vorislar o'rtasida taqsimlash masalalari D.Z. Yakupova tomonidan chuqur o'rganilgan. Muallif asosiy vositalarni taqsimlashdan oldin ularni texnologik vazifasiga ko'ra tasniflashni taklif etadi. Jumladan, muayyan faoliyat turiga xizmat qiluvchi, umumxo'jalik maqsadida foydalaniladigan hamda foydalanilmayotgan asosiy vositalarni alohida guruhlariga ajratish zarurligi asoslangan. Shuningdek, iqtisodiy jihatdan bo'linmaydigan obyektlarni umumiy ulushli mulk sifatida hisobga olish imkoniyati ko'rib chiqilgan.

Yesin va Kushlyanskiy qayta tashkil etilayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida asosiy vositalar qiymatining turlicha shakllanishi muammosini tadqiq qilib, huquqiy vorislarda bir xil obyektlar turli qiymatlarda hisobga olinishi moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini buzishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Mualliflar qayta baholashning yagona metodologiyasini ishlab chiqish zarurligini asoslab berganlar.

O'zbekistonlik tadqiqotchilardan N. Sanoqulova asosiy vositalarni tan olish va hisobdan chiqarish, N. Saidalievna hisobni raqamlashtirish va inventarizatsiyani takomillashtirish, J. Aminboev esa qayta baholash va amortizatsiya hisobini takomillashtirish masalalarini tadqiq qilgan. Mualliflar asosiy vositalar hisobi ishonchligini oshirishda inventarizatsiya, qayta baholash va xalqaro standartlarga muvofiq baholash usullarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Biroq mazkur tadqiqotlarda qayta tashkil etish jarayonida asosiy vositalarni kompleks baholash mexanizmi alohida tadqiq etilmagan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda asosiy vositalarni baholash, qayta baholash va hisobda aks ettirish masalalari alohida o'rganilgan bo'lsa-da, qayta tashkil etish jarayonida inventarizatsiya, adolatli qiymatni aniqlash, taqsimlash balansi va moliyaviy hisobotda ochiqchalarini yagona kompleks metodologiya sifatida tadqiq qilish masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur tadqiqot ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda korxonalarni qayta tashkil etish jarayonida asosiy vositalar hisobi va baholash masalalarini o'rganish uchun tizimli va qiyosiy tahlil, normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish, buxgalteriya hisobi standartlarini taqqoslash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil asosida MHXS (IFRS) 3 "Business Combinations", MHXS (IAS) 16 "Property, Plant and Equipment" hamda O'zbekiston Respublikasi moliyaviy hisobot milliy standartlarining asosiy vositalarni tan olish, baholash va hisobda aks ettirishga oid talablari o'rganildi. Tadqiqot jarayonida xalqaro va milliy standartlar talablari qiyosiy tahlil qilinib, qayta tashkil etish jarayonida asosiy vositalar hisobiga ta'sir etuvchi omillar tizimlashtirildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonalarni qayta tashkil etish jarayonida asosiy vositalar hisobi bilan bog'liq muammolarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, amalda eng ko'p uchraydigan masalalar aktivlarni inventarizatsiya qilish, baholash, qayta baholash, huquqiy vorislar o'rtasida taqsimlash va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish bosqichlarida yuzaga keladi. Tahlil natijalariga ko'ra, baholash va taqsimlash bilan bog'liq muammolar eng yuqori xavf darajasiga ega bosqichlar hisoblanadi.

IFRS 3 "Business Combinations" standartiga muvofiq, biznes birlashuvlarida xarid qilingan korxonaning identifikatsiya qilinadigan aktivlari va qabul qilingan majburiyatlari sotib olish sanasida adolatli qiymat bo'yicha tan olinadi. Bunda xaridor tashkilot sotib olingan aktivlar va qabul qilingan majburiyatlarning haqqoniy qiymatini aniqlashi hamda moliyaviy hisobotda aks ettirishi lozim.

Mazkur talab qayta tashkil etish jarayonida asosiy vositalarni hisobga olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki amaliyotda qayta tashkil etilayotgan korxonalarining balanslarida bir xil iqtisodiy mazmunga ega bo'lgan asosiy vositalar turli qiymatlarda aks ettirilgan holatlar uchraydi. Bu holat, ayniqsa, qo'shib yuborish va qo'shib olish jarayonlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

D.Z. Yakupovning tadqiqotlarida qayta tashkil etish jarayonida asosiy vositalarni taqsimlashda texnologik bog'liqlik asosiy mezon sifatida qabul qilinishi lozimligi asoslangan. Muallif asosiy vositalarni uch guruhga ajratishni taklif etadi: ma'lum faoliyat turiga xizmat qiluvchi obyektlar, umumxo'jalik maqsadida foydalaniladigan obyektlar hamda foydalanilmayotgan obyektlar. Bunday tasniflash taqsimlash balansida aktivlarni haqqoniy aks ettirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv mazkur tadqiqotda taklif etilgan algoritmnning uchinchi bosqichini shakllantirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, qayta tashkil etish jarayonida asosiy vositalarni taqsimlash bo'yicha mavjud milliy amaliyotda asosan qoldiq qiymatdan foydalaniladi. Biroq IFRS 3 va xalqaro baholash amaliyotida aktivlarning adolatli qiymatini aniqlashga ustuvor ahamiyat beriladi. PwC mutaxassislarining ta'kidlashicha, biznes birlashuvlarida asosiy vositalarning adolatli qiymatini aniqlashda mustaqil baholovchilarning xulosalari muhim ahamiyatga ega bo'lib, binolar, inshootlar va texnologik uskunalar uchun bozor va xarajat yondashuvlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqot davomida qayta tashkil etish jarayonida asosiy vositalar qiymatining shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilindi. Ular quyidagilardan iborat:

- obyektning dastlabki qiymati;
- yig'ilgan amortizatsiya summasi;
- avvalgi qayta baholash natijalari;
- obyektning jismoniy va ma'naviy eskirishi;
- bozor qiymati;
- texnologik ahamiyati.

Ushbu omillar ekspert baholash usuli orqali saralanib, qayta tashkil etish jarayonida aktivlar qiymatiga ta'sir darajasi bo'yicha guruhlashtirildi.

Mazkur omillar ichida bozor qiymati, jismoniy eskirish va texnologik ahamiyat qayta tashkil etish jarayonida asosiy vositalar qiymatiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida baholandi.

Yesin va Kushlyanskiy tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda qayta tashkil etilgan korxonalarda bir xil obyektlar turli baholash asoslari natijasida turlicha qiymatlarda hisobga olinayotgani qayd etilgan. Mualliflar ushbu muammoni hal qilish uchun qayta tashkil etish sanasida yagona qayta baholash mexanizmini qo'llashni taklif qilganlar.

Asosiy vositalarni keyingi baholash bo'yicha xalqaro tajriba tahlili IAS 16 standartida ikki xil model qo'llanilishini ko'rsatdi:

- Dastlabki qiymat modeli;
- Qayta baholash modeli.


IAS 16 talablariga muvofiq, qayta baholash modeli tanlangan holda aktivlar muntazam ravishda qayta baholanishi va balans qiymati adolatli qiymatdan sezilarli darajada farq qilmasligi lozim.

Kruglyak va Kulbina tomonidan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar tahlili shuni ko'rsatadiki, qayta baholash natijalarini hisobga olishda amortizatsiyani proporsional qayta hisoblash usuli moliyaviy hisobotning ishonchligini ta'minlashda samarali hisoblanadi. Mualliflar qayta baholash natijasida shakllangan qo'shimcha kapitalni alohida hisob obyektlari kesimida yuritishni tavsiya qilganlar.

Tadqiqot natijalari asosida korxonalarni qayta tashkil etish jarayonida asosiy vositalar hisobi va moliyaviy hisobotini shakllantirishning takomillashtirilgan algoritmi ishlab chiqildi (1-rasm).

Mazkur algoritmnning birinchi bosqichida qayta tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilinib, qayta tashkil etishning huquqiy shakli (qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish yoki o'zgartirish) aniqlanadi. Ushbu bosqichda qayta tashkil etish jarayonida ishtirok etuvchi subyektlar tarkibi, huquqiy vorislar doirasi

hamda ularga o'tadigan aktivlar va majburiyatlar tarkibi belgilab olinadi.



1-rasm. Korxonalarni qayta tashkil etish jarayonida asosiy vositalar hisobi va hisobotini tashkil etish algoritmi

Ikkinchi bosqichda asosiy vositalarning haqiqiy mavjudligi va texnik holatini aniqlash maqsadida to'liq inventarizatsiya o'tkaziladi. Inventarizatsiya jarayonida buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan obyektlarning amaldagi holati taqqoslanib, aniqlangan farqlar tegishli tartibda rasmiylashtiriladi.

Uchinchi bosqichda inventarizatsiya natijalari asosida asosiy vositalar texnologik vazifasi va iqtisodiy mazmuniga ko'ra tasniflanadi. Bunda ishlab chiqarish jarayoniga bevosita xizmat qiluvchi obyektlar, umumxo'jalik ahamiyatiga ega obyektlar hamda vaqtincha foydalanilmayotgan yoki sotishga mo'ljallangan obyektlar alohida guruhlariga ajratiladi. Mazkur yondashuv keyingi bosqichlarda aktivlarni huquqiy vorislar o'rtasida oqilona taqsimlash imkonini yaratadi.

To'rtinchi bosqichda mustaqil baholovchilar ishtirokida asosiy vositalarning adolatli qiymati aniqlanadi. Bu bosqichda obyektlarning joriy bozor qiymati, texnik holati, jismoniy va ma'naviy eskirish darajasi hamda kelgusida iqtisodiy naf keltirish imkoniyati hisobga olinadi. Adolatli qiymatni aniqlash IFRS 3 va IAS 16 talablariga muvofiq, aktivlarning haqqoniy baholanishini ta'minlaydi.

Beshinchi bosqichda qayta baholash natijalari buxgalteriya hisobi registrlarida aks ettiriladi. Zarur hollarda asosiy vositalarning balans qiymati, yig'ilgan amortizatsiya summaları va qayta baholash zaxiralari tegishli hisobvaraqlarda qayta hisoblanadi.

Oltinchi bosqichda qayta tashkil etish uchun taqsimlash balansini shakllantiriladi. Unda har bir huquqiy vorisga o'tadigan asosiy vositalar tarkibi, ularning baholangan qiymati va tegishli amortizatsiya summaları aks ettiriladi.

Yettinchi bosqichda asosiy vositalarni huquqiy vorislarga o'tkazish bo'yicha qabul qilish-topshirish dalolatnomalari rasmiylashtiriladi. Ushbu hujjatlar aktivlarga bo'lgan mulkiy huquqlarning o'tishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Algoritmning yakuniy bosqichida qayta tashkil etish natijalari moliyaviy hisobot va hisobotga tushuntirish xatlarida ochib beriladi. Bunda qayta tashkil etish shakli, o'tkazilgan baholash ishlari, huquqiy vorislarga o'tgan asosiy vositalar qiymati hamda qayta baholash natijalari to'g'risidagi axborot manfaatdor foydalanuvchilarga taqdim etiladi.

Masalan, qayta tashkil etilayotgan korxonada boshlang'ich qiymati 1 200 mln so'm, yig'ilgan amortizatsiyasi 400 mln so'm bo'lgan obyektning qoldiq qiymati 800 mln so'mni tashkil etgan. Mustaqil baholovchi tomonidan aniqlangan adolatli qiymat 1 050 mln so'mni tashkil etdi. Natijada taqsimlash balansida mazkur obyekt 1 050 mln so'm qiymatda aks ettirildi.

Taklif etilgan algoritm shartli misol asosida aprobatsiya qilinib, aktivlarni baholashda qoldiq qiymat va



adolatli qiymat o'rtasida 31,3 foiz farq mavjudligi aniqlandi.

$$(1050 - 800) / 800 \times 100 = 31,25\%$$

Taklif etilayotgan algoritm qayta tashkil etish jarayonida asosiy vositalar hisobiga oid axborotning ishonchligi, taqqoslanuvchanligi va shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi hamda milliy amaliyotni IFRS 3 va IAS 16 talablariga yaqinlashtirish imkonini beradi.

Fikrimizcha, mazkur algoritmni qo'llash qayta tashkil etish jarayonida asosiy vositalar hisobiga oid axborotning ishonchligi va taqqoslanuvchanligini oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqot davomida qayta tashkil etish jarayonida asosiy vositalarni baholash uchun quyidagi yondashuvlar samarali ekanligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Qayta tashkil etish jarayonida asosiy vositalarni baholashga yondashuvlar

Baholash usuli	Qo'llash maqsadi	Afzalliklari
Qoldiq qiymat bo'yicha	Milliy amaliyot	Oddiy va tezkor
Bozor qiymati bo'yicha	Sotish va qo'shib olish	Ob'ektiv baholash
Adolatli qiymat bo'yicha	IFRS 3 talablari	Moliyaviy hisobot sifati yuqori
Qayta baholash modeli	IAS 16 talablari	Aktivlarning real qiymatini aks ettiradi

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, adolatli qiymat modeli moliyaviy hisobotda aktivlarning real iqtisodiy qiymatini aks ettirish darajasi bo'yicha boshqa yondashuvlarga nisbatan ustunlikka ega.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, qayta tashkil etish jarayonlarida faqat qoldiq qiymatdan foydalanish aktivlarning haqiqiy iqtisodiy qiymatini to'liq aks ettirmaydi. Shu sababli qayta tashkil etish sanasida asosiy vositalarni adolatli qiymat bo'yicha baholash va keyinchalik IAS 16 talablariga muvofiq qayta baholash modelini qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari korxonalarini qayta tashkil etish jarayonida asosiy vositalar hisobi moliyaviy hisobotning ishonchligi, shaffofligi va taqqoslanuvchanligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar asosiy vositalarni huquqiy vorislar o'rtasida taqsimlashda ularning faqat balans qiymatiga tayanish yetarli emasligini, bunda obyektlarning texnologik vazifasi, funksional bog'liqligi, texnik holati va kelgusida iqtisodiy naf keltirish imkoniyatini ham hisobga olish zarurligini aniqladi.

Tadqiqotning asosiy ilmiy natijasi sifatida qayta tashkil etish jarayonida asosiy vositalar hisobi va moliyaviy hisobotini tashkil etishning sakkiz bosqichli algoritmi ishlab chiqildi. Ushbu algoritm qayta tashkil etish qarorini qabul qilishdan tortib, moliyaviy hisobotda axborotni ochib berishgacha bo'lgan jarayonlarni yagona ketma-ketlik asosida tashkil etish imkonini beradi.

Taklif etilgan algoritmni amaliyotga joriy etish qayta tashkil etilayotgan korxonalarda hisob axborotining aniqligi va nazorat darajasini oshirish, aktivlarni taqsimlash bilan bog'liq bahsli holatlarni kamaytirish hamda moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining taqqoslanuvchanligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari qayta tashkil etish jarayonida asosiy vositalarni adolatli qiymat bo'yicha baholash va baholash natijalarini taqsimlash balansida aks ettirish moliyaviy hisobotning haqqoniyligini oshirishini ko'rsatdi. Shu munosabat bilan milliy buxgalteriya hisobi standartlarida qayta tashkil etish jarayonida asosiy vositalarni tan olish, baholash, taqsimlash va ochib berish bo'yicha alohida uslubiy qoidalarni ishlab chiqish hamda ularni IFRS 3 va IAS 16 talablari bilan uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- IFRS Foundation. *IFRS 3 Business Combinations*. – London: IFRS Foundation, 2024.
- IFRS Foundation. *IAS 16 Property, Plant and Equipment*. – London: IFRS Foundation, 2025.
- Aminboyev J. Asosiy vositalarni qayta baholash jarayonini takomillashtirish // *Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar*. – 2026. – Vol. 3, № 1. – B. 461–469. – URL: <https://doi.org/10.60078/3060-4842-2026-vol3-iss1-pp461-469>
- Aminboyev J.O. Amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini takomillashtirish // *Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi*. – 2026. – Vol. 6, № 03. – B. 173–181. – URL: https://doi.org/10.55439/AFA/vol6_iss03/1350
- Epstein B.J., Jermakowicz E.K. *IFRS 2024: Interpretation and Application of International Financial Reporting*



- Standards*. – Hoboken: Wiley, 2024. – 1650 p.
6. PwC. *Business Combinations: Guide to Applying IFRS 3*. – London: PricewaterhouseCoopers, 2023. – 582 p.
 7. PwC. *Fair Value Measurement: Business Combinations*. – London: PricewaterhouseCoopers, 2022.
 8. Saidaliyeva N.U. Asosiy vositalar hisobini takomillashtirish // *Modern Science and Research*. – 2025. – Vol. 4, № 1. – B. 322–327. – URL: <https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.science-research.60373>
 9. Sanokulova N. Asosiy vositalar buxgalteriya hisobini takomillashtirish // *Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar*. – 2024. – Vol. 1, № 3. – B. 93–99. – URL: <https://doi.org/10.60078/3060-4842-2024-vol1-iss3-pp93-99>
 10. Есин М.П., Кушлянский О.А. О методологии переоценки основных средств реформируемых акционерных обществ // *Имущественные отношения в Российской Федерации*. – 2007. – № 7 (70). – С. 76–84.
 11. Кругляк З.И., Кульбина А.С. Методические рекомендации по бухгалтерскому учету переоценки основных средств в условиях реформирования национальных стандартов финансовой отчетности // *Научный журнал КубГАУ*. – 2017. – № 129 (05). – С. 1–13.
 12. Романов В.А. Современные проблемы переоценки основных средств // *Вестник Белорусской государственной сельскохозяйственной академии*. – 2011. – № 4. – С. 97–103.
 13. Якупова Д.З. Бухгалтерский учёт распределения объектов основных средств между правопреемниками при реорганизации хозяйствующего субъекта // *Интеллект. Инновации. Инвестиции*. – 2011. – № 2. – С. 206–209.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100